



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 9, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST
VOLUME 9, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Баҳадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Аҳмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллажаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Турсунова Юлдуз Бобоқулловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Abduraxmon Abduxalimov YANGI O‘ZBEKISTONDA TIBBIY XIZMAT KO‘RSATISH TURLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	5
2. Омонулло Бўриев СОҲИБҚИРОН НАЗАРИДАН ЎТГАН ТАРИХИЙ АСАР.....	12
3. Хайрия Буриева ПУТЕВОДИТЕЛЬ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРА, СОДЕРЖАНИЕ, ИСТОРИЧЕСКАЯ И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКАЯ ЦЕННОСТЬ.....	19
4. Nodira Babadjanova DINIY-MA’RIFIY SIYOSAT: QAT’IY KURASHDAN KENG BAG‘RIKENGLIK SARI.....	32
5. Davletov Sanjarbek, Bekimbetov Bahodir, OROL DENGIZINING PAYDO BO‘LISHI VA GIDROLOGIK O‘ZGARISHLARI TARIXIDAN.....	37
6. Дорошенко Татьяна ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛЬСКОЙ ДИАСПОРЫ В ТУРКЕСТАНЕ И ЕЕ УЧАСТИЕ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ КРАЯ (КОНЕЦ XIX -НАЧАЛО XXВВ.).....	42
7. Axmedov Baxriddin O‘ZBEKISTONDA HARBIY SUDYALAR INSTITUTI: TAYINLASH, MALAKA OSHIRISH VA ATTESTATSIYA JARAYONLARI (2001–2016 yillar misolida).....	50
8. Akbarova Nigora FARG‘ONA VILOYATIDA MUSIQA TA’LIMI TIZIMI: MUSIQA MAKTABLARINIING TASHKIL TOPISHI VA DASTLABKI DAVRDAGI FAOLIYATI.....	60
9. Nurmetov Ismoil O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SIYOSATNING TASHKILY-HUQUQIY ASOSLARI RIVOJLANISH TARIXIDAN.....	65
10. Зарипов Жахонгир ИСТОРИОГРАФИЯ ПО МИГРАЦИИ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННЫЕ ЗОНЫ УЗБЕКИСТАНА 70-80-Х ГОДОВ XX ВЕКА.....	71
11. Polvanov Azim TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI.....	79
12. Choriyeva Nargiza O‘ZBEKISTONDA EKOLOGIK TURIZM: HOZIRGI HOLATI, SALOHİYATI VA BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	84




Polvanov Azim Kuchkarovich

Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti
“O‘zbek va xorijiy tillar kafedrası” o‘qituvchisi

TEMURIYLAR DAVRI YOZMA MANBALARIDA SANCHUVCHI, KESUVCHI, VA ZARB BERUVCHI SOVUQ QUROLLAR VA ULARNING TASNIFI

For citation: Azim K.Polvanov. PIERCING, CUTTING, AND BLUNT COLD WEAPONS IN THE WRITTEN SOURCES OF THE TIMURID PERIOD AND THEIR CLASSIFICATION. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18498754>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Temuriylar davri yozma manbalarida uchraydigan sovuq qurollar haqidagi ma’lumotlar tahlil qilinib, ularni funksional belgilariga ko‘ra sanchuvchi, kesuvchi va zarb beruvchi guruhlariga ajratish maqsad qilingan. Tadqiqot jarayonida Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” va boshqa tarixiy manbalardagi ma’lumotlarga tayaniladi. Ushbu manbalar orqali sovuq qurollarning terminologiyasi, qo‘llanish doirasi va harbiy amaliyotdagi o‘rni aniqlashtiriladi. Nayza, qilich, xanjar, shashpar, cho‘qmor, kestan, tabarzin va bolta kabi sovuq qurollar ularning turlari va xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Temuriylar, Nayza, Qilich, Shashpar, Tabarzin,

Полванов Азим Кучкарович

Ташкентский архитектурно-строительный университет
преподаватель кафедры «Узбекского и иностранных языков»

КОЛЮЩЕЕ, РЕЖУЩЕЕ И УДАРНОЕ ХОЛОДНОЕ ОРУЖИЕ В ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКАХ ТИМУРИДСКОГО ПЕРИОДА И ИХ КЛАССИФИКАЦИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются сведения о холодном оружии, зафиксированные в письменных источниках тимуридского периода, с целью их классификации по функциональным признакам на колющее, режущее и ударное оружие. В ходе исследования использованы данные из произведений Низам ад-Дина Шами и Шараф ад-Дина Али Йезди «Зафар-наме», Захириддина Мухаммада Бабура «Баbur-наме», а также других исторических источников. На основе анализа данных источников уточняются терминология холодного оружия, сферы его применения и роль в военной практике. В статье рассматриваются такие виды холодного оружия, как копьё, меч, кинжал, шашпар, булава, кестан, табарзин и боевой топор, анализируются их разновидности и характерные особенности.

Ключевые слова: Амир Темур, Тимуриды, копье, меч, шашпар, табарзин.

Azim K.Polvanov

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering
Lecturer, Department of Uzbek and Foreign Languages

PIERCING, CUTTING, AND BLUNT COLD WEAPONS IN THE WRITTEN SOURCES OF THE TIMURID PERIOD AND THEIR CLASSIFICATION

ABSTRACT

This article analyzes information on cold weapons recorded in the written sources of the Timurid period, with the aim of classifying them according to functional characteristics into piercing, cutting, and blunt weapons. The study is based on data drawn from the works Zafarnama by Nizam al-Din Shami and Sharaf al-Din Ali Yazdi, Baburnama by Zahir al-Din Muhammad Babur, as well as other historical sources. On the basis of these materials, the terminology of cold weapons, their fields of application, and their role in military practice are clarified. The article examines such types of cold weapons as the spear, sword, dagger, shashpar, mace, kestan, tabarzin, and battle axe, analyzing their varieties and characteristic features.

Index Terms: Amir Temur, Timurids, spear, sword, shashpar, tabarzin.

1. Dolzarbligi:

Bugungi kunga qadar Temuriylar davri quollariga bag'ishlangan tadqiqotlarda asosan arxeologik topilmalar yoki umumiy harbiy tarix masalalari yoritilgan bo'lib, yozma manbalar asosida sovuq qurollarning tasnifi, terminologik xususiyatlari va manbalardagi semantik yuklamasi maxsus ilmiy izlanish obyekti sifatida kam o'rganilgan. Bu esa mazkur mavzuni manbashunoslik yondashuvi asosida qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu jihatdan, Temuriylar davri yozma manbalarida sanchuvchi, kesuvchi va zarb beruvchi sovuq qurollarni aniqlash, ularni funksional va tipologik jihatdan tasniflash, shuningdek, har bir qurol turining harbiy amaliyotdagi o'rnini manbalar asosida tahlil qilish bugungi tarixshunoslik uchun dolzarb ilmiy muammo hisoblanadi.

2. Metod va o'rganilganlik darajasi:

Tadqiqot jarayonida mavzuga oid ma'lumotlarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mulohaza, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Amir Temur va Temuriylar saltanatidagi qo'shin, qurol-aslahalar, harbiy strategiyalarini ba'zi jihatlarini tahlil qilgan. Xorijlik olimlardan L. Keren[1], B. Mans[2], M. Ivanin[3] kabi olimlar ham Amir Temur va Temuriylar davridagi qurol aslahalar haqidagi masalalarga to'xtalib o'tganlar. O'zbekistonda ham ushbu masala B. Ahmedov[4], Azamat Ziё.[5] Hamidulla Dadaboyev[6], Sh. Uljayeva[7] va boshqalar ham qisman to'xtalib o'tgan.

Mavzu bugungi kunga qadar to'liq o'rganilmagan va soha tarixini o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

3. Tadqiqot natijalari:

XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar tarixida harbiy-siyosiy jarayonlar keskin faollashgan davr bo'lib, bu jarayonlarda Temuriylar davlati muhim o'rin egallaydi. Amir Temur va uning vorislari olib borgan harbiy yurishlar nafaqat siyosiy hududlarning kengayishi, balki harbiy ish tashkil etilishi, qurollanish tizimi va qo'shin ta'minotining takomillashuvi bilan ham harakterlanadi. Shu jihatdan Temuriylar davrida qo'llanilgan sovuq qurollarni o'rganish harbiy tarix, manbashunoslik va qurolshunoslik nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Temuriylar qo'shinida qo'llanilgan harbiy qurol-aslahalarning muhim qismini sanchuvchi, kesuvchi va zarb beruvchi sovuq qurollar tashkil etgan. Ushbu qurollar asosan yaqin masofadagi janglarda qo'llanilib, askarlarning jangovar tayyorgarligi va individual mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalardan biri bo'lgan. Yozma manbalarda ushbu qurol-aslahalar haqida

uchraydigan ma'lumotlar Temuriylar qo'shining qurollanish darajasi yuqori va tizimli bo'lganligini ko'rsatadi. Kesuvchi sovuq qurollar orasida qilich Temuriylar davri harbiy qurollarining eng muhim va ramziy turi sanaladi. Qilich nafaqat jang quroli, balki harbiy mavqe va sharaf timsoli sifatida ham e'tirof etilgan. "Temur tuzuklari" da [8] harbiy intizom va jangovar tayyorgarlik, harbiylarning qurollanish masalalari yoritilar ekan, oddiy askarlar, o'nboshi, yuzboshi, mingboshi va yuqori martabali amirlar ham qilich bilan qurollanishi ta'kidlanadi. Ushbu ma'lumotlar shuni anglatadiki, Amir Temur qo'shinida qurollarning minimal va majburiy standartlari mavjud bo'lib, qilich har bir jangchi uchun zarur va ajralmas qurol sifatida belgilangan, har bir harbiy bug'in vakilining shaxsiy jangga tayyor bo'lishi majburiy hisoblangan. Bu holat harbiy intizom, mas'uliyat va jangovar tayyorgarlik ierarxik mansabdan ustun qo'yilganini anglatadi. Temuriylar davrida ham janglarda qilichning ahamiyati katta bo'lgan. Zahiriddin Muhammad Bobur qilichning boshqa qurollardan afzalligi va ustunligini quyidagicha bayon etgan. "Shashpar, cho'qmor, kestan, tabarzin va bolta tegsa bir yerga ta'sir qiladi; agar qilich tegsa boshdan oyoqqacha kesadi." [9] Shuningdek, bu davrda shamshirlardan ham keng foydalanilgan qilich va shamshirning asosiy farqi qilich-to'g'ri yoki juda kam egri, tig'i nisbatan kengroq asosan ikki qirrali bo'lgan. Shamshir-ancha egri shaklda, tig'i ingichka va cho'ziq asosan bir qirrali bo'lgan. Nizomiddin Shomiy va Sharafiddin Ali Yazdiylarning "Zafarnoma" asarlari va boshqa tarixiy manbalarda qilich bilan olib borilgan janglar tasviri Temuriylar qo'shinining yaqin masofadagi janglarda yuqori mahoratga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Sovuq qurollar tarkibiga xanjar kabi qisqa masofadagi jang qurollari ham taalluqli bo'lib, ular asosan qo'shimcha yoki yordamchi qurol vazifasini bajargan. Xanjar yaqin janglarda, ayniqsa tor joylarda yoki jangning yakuniy bosqichlarida ishlatilgan. Manbalarda bu qurol ko'proq individual janglar tasvirida uchraydi. Xanjarning ham bir nechta turlari bo'lgan Misol uchun "Temur tuzuklari" da harbiy sarkardalar devonxonaga, bazm-majlislarga bo'kda va qilichsiz kelsinlar, [10] deb aytilgan. Bo'kda - tig'i qisqa, yarim egri kundalik va marosimiy xanjar hisoblangan. Bundan tashqari dashna - to'g'ri va uchli sanchish uchun maxsus mo'ljallangan, tor va uchli tig'ga ega jangovar xanjarlardan ham foydalanilgan.

Sanchuvchi qurollar ichida nayza Temuriylar qo'shinida keng qo'llanilgan asosiy qurollardan biri hisoblanadi. Nayza asosan otliq qo'shin tomonidan dushman safini yorib o'tish, hujumni kuchaytirish va tartibni buzish maqsadida qo'llanilgan. Manbalarda nayzaning jang taktikasidagi ahamiyati alohida ta'kidlanib, u qo'shin hujumining asosiy vositalaridan biri sifatida ko'rsatiladi. "Temur tuzuklari" da amir ul-umaroga bayroq, nog'ara va amirlarning darajasini bildiruvchi uchu o'tkir nayza berilishini aytiladi. [11] Bu yerda nayza faqat jang quroli emas, balki siyosiy va harbiy mavqei belgisi sifatida ishlatilganligini ko'rishimiz mumkin. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida ham nayza haqida ma'lumotlar bayon etilgan, "Shoh Mansur hamla qilib yaqin keldi Sohibqiron Amir Temur jon oluvchi nayzasi zarbi bilan uning hayotini halokatga uchratishni xohladi, lekin uning nayzasini olib yuruvchi Po'lod ismli nayzador yigiti jangning haybatidan qo'rqib, o'z joyidan qochgan edi." [12] mazkur lavha Temuriylar davrida nayza yaqin jangda muhim va hal qiluvchi qurol bo'lganini, shuningdek, sarkardalarning ba'zi shaxsiy qurollari maxsus jangchilar tomonidan olib yurilganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, harbiy muvaffaqiyatda inson omili – jasorat, intizom va mas'uliyatning qurol-aslahadan kam bo'lmagan ahamiyatga ega ekanini ochib beradi. Lyusen Kerenning "Amir Temur Saltanati" asarida Amir Temur qo'shinining Hindistondagi janglari quyidagicha tasvirlangan "Otliq askarlar favjlari nayza otib va qilich solib fellarni shunchalar qonga beladilarki, xartumlari kesilgan, tilingan va nayzalar ilma-teshik qilgan jonivorlar tartibsiz ravishda chekina boshladilar." [13] Keltirilgan manbada tilga olingan "nayza otib" iborasi Temuriylar qo'shinida keng qo'llangan, yengil vaznli va uloqtirish uchun maxsus muvozanatlangan, uloqtiriladigan nayza — sanchqini (zubin) nazarda tutmoqda. Tarixiy yozma manbalarda nayza Temuriylar qo'shinida keng qo'llanilgan asosiy sovuq qurollardan biri sifatida tasvirlanadi. Nayzalarni vazifasi, qo'llanish usuli hamda konstruktiv xususiyatlariga ko'ra quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Uzun jangovar nayza. (asosiy otliq nayzasi)

Xususiyati: Uzunligi taxminan 4-6 metrli nayza, yog'och sop, uch qismi temirdan.

Vazifasi: Dushman safini yorib o'tish. Yakka jangda hal qiluvchi zarba berish. Dushman hujumidan himoyalanişda ham foydalanilgan.

2.Qisqa nayza (Harbiy yordamchi nayza).

Xususiyati: uzunligi 1,5-2,0 metr, yengil va tez harakatga mos.

Vazifasi: Yakka jangda, tor ioylarda, piyoda janglarda hal qiluvchi zarba berish.

3.Uloqtiriladigan nayza (sanchqi-zubin).

Xususiyati: yengil vaznli, uloqtirish uchun maxsus muvozanatlangan.

Vazifasi: to'qnashuv boshlanish arafasida dushman safini buzish, psixologik bosib yaratish.

4.Bayroqli va nishonli nayza.

Xususiyati: Nayza uchiga bayroq, tug' yoki nishon bog'langan, harbiy ramziy ahamiyatga ega bo'lgan.

Vazifasi: Qo'shin bo'linmalarini boshqarish, janglarda harbiy buyruqlarni berish.

5.O'tkir uchli va keng tig'li nayzalar.

Xususiyati: Ikki qirrali, keng tig'li, chuqur sanchish, jarohatni og'irlashtirishga mo'ljallangan.

Vazifasi: Sovutli, kuchli himoyalangan jangchilar bilan to'qnashuvda hal qiluvchi zarba berish.

Zarb beruvchi sovuq qurollar guruhiga gurz va jangovar boltalar kirgan. Bu qurollar dushmanning himoya vositalarini yorib o'tish, ayniqsa sovut va qalqon bilan himoyalangan askarlarga qarshi samarali vosita sifatida ishlatilgan. Yozma manbalarda gurzi kuchli zarba beruvchi qurol sifatida tilga olinib, u jangning keskin pallalarida qo'llanilgan qurollardan biri bo'lgan. Ayrim manbalarda bunday qurollar og'ir qurollangan lashkarlar tomonidan foydalanilgani qayd etiladi. Misol uchun Amir Temurning Halab shahrini zabt etish jarayoniga bevosita guvoh bo'lgan tarixchi Nizomiddin Shomiy o'zining "Zafarnoma" asarida mazkur voqeani quyidagicha tasvirlaydi. Abu Bakr bahodir xos navkarlari bilan o'ng qo'ldan dushmanga hamla qildi, o'qu nayza va gurzi, shamshir zarbi bilan ularni haydadi.[14] Matnda o'q (kamon), nayza, gurzi va shamshir birgalikda tilga olinadi. Bu holat Temuriylar qo'shinida jang masofadan, kamondan o'q uzish bilan boshlanib, keyin nayza bilan sanchma zarba berilganini, yaqin jangda esa gurzi va shamshir faol ishlatilganini ko'rsatadi. Shuningdek, qo'shin jangni bosqichma-bosqich olib borib, har bir qurol o'z vazifasiga ko'ra ishlatilganini bildiradi.

4.Xulosa

Umuman olganda, sanchuvchi, kesuvchi va zarb beruvchi sovuq qurollar Temuriylar qo'shinining asosiy jangovar vositalari bo'lib, ular harbiy yurishlarning muvaffaqiyatli kechishida muhim rol o'ynagan. Yozma manbalarda ushbu qurollarning tez-tez tilga olinishi ularning Temuriylar davri harbiy tizimidagi markaziy o'rnini ko'rsatadi hamda qo'shin ta'minoti masalasida sovuq qurollarga alohida e'tibor qaratilganini tasdiqlaydi. Yozma manbalarda uchraydigan qilich, shamshir, nayza, xanjar, gurzi, shashpar, tabarzin, bolta kabi qurollar nafaqat jang quroli sifatida, balki harbiy mavqe, ijtimoiy martaba va ramziy ma'noga ega vositalar sifatida ham talqin etilgan. Ayniqsa, qilich va nayza Temuriylar davri harbiy madaniyatining asosiy ramzlari bo'lib, ular har bir jangchi uchun majburiy qurol sifatida belgilangan. Bu holat Amir Temur qo'shinida qurollanishning minimal standartlari va harbiy intizom mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

[1] Керен Л. Амир Темур салтанати / Француз тилидан таржима ва изоҳлар муаллифи Б. Эрматов. - Тошкент: Маънавият, 1999.

[2] Manz Beatrice Forbes. The rise and rule of Tamerlane. - Cambridge University Press, 1989

[3]М.Ivanin. Ikki buyuk sarkarda.Tarjimon/Akmaljon Mahkamov. Toshkent. "Fan". 1994.

[4] Ахмедов Б. Амир Темурнинг давлатни идора қилиш сиёсати / Амир Темурни ёд этиб. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996

- [5] Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. - Тошкент:Шарқ, 2000
- [6]Hamidulla Dadaboyev. Amir Temurning harbiy mahorati. Toshkent. “Yozuvchi” nashriyoti. 1996.
- [7]Ўлжаева Ш. Амир Темур давлат бошқаруви - Тошкент: Akademnashr, 2017.
- [8]Temur Tuzuklari. Alixonto'ra Sog'unuy va Habibulla Karamatov tarjimasini. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991 y.
- [9]Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma».“O'qituvchi”. T. 2008 y. b 89.
- [10]Temur Tuzuklari. 84.b.
- [11]Temur Tuzuklari. 82.b.
- [12] Nizomiddin Shomiy. “Zafarnoma”. Yunusxon hakimjonov tarjimasini. “O'zbekiston” nashriyoti.1996y 177. b.
- [13]Lyusen Keren. Amir Temur Saltanati. 90.b.
- [14]Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma.295. b.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qator muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qator sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].